

AVESTO TARJIMALARI: FARQLAR VA O'XSHASHLIKLAR

Murodova Gulmira Muhiddin qizi
gulmiramurodova319@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Avestoning uch tildagi, ya'ni o'zbek, ingliz va rus tillaridagi tarjimalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar Videvdatning birinchi fargardi misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Videvdat, Axura Mazda, Axriman, Iyron Vij, Sug'd, Marv, Balx, Nisoya, Hirot, Vaixa Girta, Avrava, Go'rg'ondagi Xninta, Xaravyata, Xiyrmant, Ray, Chaxra, Varina, Rangxa

ПЕРЕВОД АВЕСТО: РАСКРЫТИ СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ

Муродова Гулмира Мухиддин кизи
gulmiramurodova319@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье были раскрыты сходства и различия между переводами Авеста на трех языках, то есть на узбекском, русском и английском языках, в случае с первое фаргарад на Видевдате.

Ключевые слова: Видевдат, Ахура Mazda, Ахриман, Ийрон Виж, Сугд, Марв, Балх, Нисоя, Хират, Ваиха Гирта, Аврава, Хнинта в Гургане, Харавята, Хийрманд, Рай, Чахра, Варина, Рангха

TRANSLATES OF AVESTO: DIFFERENCES AND SIMILARITIES

Murodova Gulmira Muhiddin qizi
gulmiramurodova319@gmail.com

ABSTRACT

In this article on the basis of Avesta translations in three language which are Uzbek, English, Russian languages is enlightened differences and similarities among translation of first fargard of Videvdat.

Keywords: Videvdat, Ahura Mazda, Ahriman, Iyron Vij, Sogd, Marv, Balkh, Nisaya, Herat, Vaiha Girta, Avrava, Khninta in Gurgan, Haravyata, Hiyrmant, Ray, Chakhra, Varina, Rangha

KIRISH

Ikki daryo oralig'i xalqlarining jahon sivilizatsiyasiga, insoniyatning ma'naviy kamolotiga asrlar davomida qo'shib kelgan hissasi bugungi kunda hech kimda shubha uyg'otmaydi. Bugun uzoq ajdodlarimiz tafakkuri va ma'naviyatining buyuk merosi bo'lmish "Avesto" kitobi ham Ikki daryo oralig'i xalqlari tarixining eng ko'hna sahifalarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ammo so'nggi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, "Avesto" va uning turli tarjimalari (o'zbek, rus va ingliz tilaridagi tarjimalar) o'rtasida muammoli jihatlar talaygina. Mazkur maqolada "Avesto" va uning bugungi turli tarjimalari o'rtasida ayrim farqlarni birinchi fargard misolida ko'rib chiqishni joiz deb topdik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Avesto qismlaridan biri bo'lmish Videvdat avvallari Vandidod shaklida mashhur bo'lgan, uning qismlari "Kichik Avesto" deb ham ataladi. Videvdatning matn tili boshqalar bilan taqqoslaganda, ya'ni "Got"larga qaraganda so'zlarda turli xil xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Shu sababli ham yakuniy qismning nisbiy sanasi I.Gershevich taklifiga binoan Ahamoniylar davrining so'nggi davri deb belgilangan.

Videvdatning birinchi fargardi Axuramazda yaratgan o'n olti mamlakat haqidadir. 16 mamlakat ro'yxati Ariana kengligidagi Ayranavayja mamlakati bilan boshlanib, Rangxa daryosi bo'yidagi mamlakatni esga olish bilan tugaydi. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, Videvdatning mazmuni va tartibi anchayin baxsli mavzu. O'z vaqtida unda keltirilgan nomlar izchilligi avestoshunoslardan X.S.Nyberg va D. Monchi-Zadex tomonidan tushuntirib berilgan. Olimlar fikriga ko'ra mamlakatlarning ko'p qismi Sharqiy Eronda va bir qismi G'arbiy Eronda joylashgan.

Xumbach Sharqiy va G'arbiy Eronda o'tkazgan izlanishlari sababli davlatlar joylashuvini Ptolomey tomonidan "Mosondro Oros" deb atalgan Parfiya va Ariya o'rtasidagi tog'da lokalizatsiya qiladi. Mamlakatlar ro'yxatining boshqa talqini G.Gnoli tomonidan aniqlangan. Yuqoridagi olimlar fikriga biroz qo'shilmagan G. Gnoli fikriga ko'ra barcha mamlakatlar Sharqiy Eron dunyosiga taalluqlidir. Yuqoridagilardan shu xulosa kelib chiqadiki haligacha ham Avesto geografiyasi bo'yicha olimlar yaxlit bir fikrga kelmagan. Masalaning yana bir jihati Videvdat birinchi fargardidagi mamlakatlar nomi, xudolar nomi hamda tuzilishi o'rtasida turli olimlar tarjimalarida farq hamda o'xshashliklar bor. Masalan, Avestoni o'zbek tiliga tarjima qilgan Asqar Mahkam tarjimasida birinchi fargard 21 qismdan iborat bo'lgan bo'lsa, Darmesteter tarjimasida birinchi fargard 20 qismdan iborat. Yana bir Avesto tarjimasida bilan shug'ullangan Steblin-Kamenskiy tarjimasida esa birinchi fargard 20

qismdan iborat qilib ko'rsatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Asqar Mahkam tarjimasi qolgan ikki tarjimadan 1 qism ko'pdir. Ayni paytda Avesto tarjimalarida xudolarning nomlarini keltirishda ham ayrim muammolar mavjud. Jumladan, Bosh xudo Axura Mazda uch tarjimada ham bir xil nomlangan. Ammo yovuzlik xudosi hisoblangan xudo Asqar Mahkam tarjimasida Axriman, Darmesteter tarjimasida Angra Mainyu, Steblin-Kamenskiy tarjimasida Zloy Dux, sharhida esa Angra Mainyu deb nomlangan. Avesto matnlarida uchragan shaxslaridan biri Asqar Mahkam tarjimasida Faridun, Darmesteter tarjimasida Trateon, Steblin-Kamenskiy tarjimasida ham Trateon deb ko'rsatilgan. Avesto xudolaridan yana biri Asqar Mahkam tarjimasida Xnasatay, Darmesteter tarjimasida Xnatxaiti, Steblin-Kamenskiy tarjimasida Xnafaiti deb tarjima qilingan. Asqar Mahkam tarjimasida Garshasp, Darmesteter tarjimasida Kerasaspa, Steblin-Kamenskiy tarjimasida Kersaspa tarzida e'tirof etilgan.

Yana bir e'tiborli jihatlardan biri Axura Mazda va Zardusht muloqoti Darmesteter va Steblin-Kamenskiy tarjimasida birinchi qismda Asqar Mahkam tarjimasida birinchi va ikkinchi qismda berilgan. Tarjimalarda ko'rinadigan jihatlardan yana biri bu davlatlar nomining turli tarjimalarda turlicha qismlarda kelishidir.

Masalan, birinchi davlat Iyron Vij Asqar Mahkam tarjimasida 3-4-qismlarda, Darmesteter tarjimasida Airyana Vayja tarzida 2-3-qismlarda, Steblin-Kamenskiy tarjimasida Ariyskiy Prostor shaklida 2-3-qismlarda keltiriladi.

Ikkinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Sug'd 5-qismda, Darmesteter tarjimasida Sugdxa shaklida 4-qismda, Steblin-Kamenskiy tarjimasida esa Sogd shaklida 4-qismda keltirilgan.

Uchinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Marv 6-qismda, Darmesteter va Steblin-Kamenskiy tarjimasida esa 5-qismda keltirib o'tilgan.

To'rtinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Balx 7-qismda keltirilib, bu hududda Axriman adovatdan Bravarani yaratdi deyiladi. Darmsteter tarjimasida esa to'rtinchi davlat Bakdxi shaklida 6-qismda keltirilib, bu hududda Axriman chumolini yaratdi deyiladi. Steblin-Kamenskiy tarjimasida xuddi shu davlat Baktriya shaklida 6-qismda keltirilib, bu hududda Axriman chumolini yaratgan deyiladi.

Beshinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Nisoya 8-qismda keltirilib, Axriman bu hududda umidsizlikni yaratdi deyiladi. Darmesteter tarjimasida Nisoya 7-qismda keltirilib, Axriman bu yerda gumonni yaratdi deyilgan bo'lsa, Steblin-Kamenskiy tarjimasida Nisu 7-qismda keltirilib, Axriman bu yerda gumonni yaratganligi e'tirof etiladi.

Oltinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Hirot 9-qismda keltirilib, Axriman bu yerda ko'z-yosh va zardob yaratgan bo'lsa, Darmesteter tarjimasida Xaroyu (Xaria) 8-qismda, Steblin-Kamenskiy tarjimasida ham xuddi shu nomda 8-qismda keltirilib, ko'z-yosh va zardob yaratganligi ko'rsatilgan.

Yettinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Vaixa Girta 10-qismda, Darmesteter tarjimasida Vaekerata 9-qismda, Steblin-Kamenskiy tarjimasida Vekertu 9-qismda keltirilgan.

Sakkizinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Avrava 11-qismda keltirilib, Axriman bu yerga kelib, zulmparvar farmonlarni yaratganligi, Darmesteter tarjimasida esa Urva 10-qismda keltirilib, Axriman bu yerda mag'rurlikni yaratganligi, Steblin-Kamenskiy tarjimasida Urva 10-qismda keltirilib, Axriman bu yerga kelib yovuz hukmdorni yaratganligi bayon etilgan.

To'qqizinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Go'rg'ondagi Xninta 12-qismda, Darmesteter tarjimasida Vexrkanas(Xyrtsania)dagi Xnenta 11-qismda, Steblin-Kamenskiy tarjimasida Girkaniya shaklida 11-qismda keltirib o'tiladi.

Xuddi shu tarzda o'ninchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Xaravyata 13-qismda keltirilib, bu yerga Ahriman kelib, "murdalarni tuproqqa topshirishdek" kechirilmas gunohni yaratdi deyilgan bo'lsa, Darmesteter tarjimasida Xaraxvaiti (Araxvoia) va Steblin-Kamenskiy tarjimasida Araxosiyu shaklida 12-qismda keltirilib, "murdalarni tuproqqa topshirishdek" kechirilmas gunohni yaratdi deyilgan.

O'n birinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Xiyrmand 14-15-qismda, Darmesteter tarjimasida Xaetumant 13-14-qismda, Steblin-Kamenskiy tarjimasida Xaetumant 13-14-qismda keltirilgan.

O'n ikkinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida uch bahodir hukmron bo'lgan Ray 16-qismda keltirilib, xusumatdan sust e'tiqodlilik gunohini yaratdi deyilgan, Darmesteter tarjimasida 3 qabila hukmron bo'lgan Ragxa 15-qismda keltirilib, Axriman bu yerda e'tiqodsizlikni, Steblin-Kamenskiy tarjimasida 3 qabila hukmron bo'lgan Raga 15-qismda e'tiqodsizlikni yaratdi, - deyiladi.

O'n uchinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Chaxra 17-qismda keltirilib, Axriman bu yerda murda yoqishni yaratdi deyilib, xuddi shu davlat Darmesteter va Steblin-Kamenskiy tarjimasida Chaxra shaklida 16-qismda keltirilgan va Axriman bu yerda murda yoqishni yaratdi deyiladi.

O'n to'rtinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Ajdahoni mag'lub etgan Faridun dunyoga kelgan to'rt go'shali Varina 18-qismda keltirilib, Axriman bu yerga kelib, "bemahal hayz ko'rgan ayollar qonini" va it hukmdorlar asoratini yaratdi deyiladi. Xuddi shu davlat Darmesteter tarjimasida Varena shaklida 17-qismda

keltirilib, Axriman bu yerda ayollar qonini va varvarlar zulmini yaratdi deyilgan bo'lsa, Steblin-Kamenskiy tarjimasida esa Varna shaklida 17-qismda keltirilib, Axriman bu yerga kelib ariy bo'lmagan hukmdorni yaratdi deb tarjima qilinadi.

O'n beshinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Xafrud 19-qismda keltirilib, Axriman bu yerda "bemahal hayz ko'rgan ayollar qonini" va qattiq issiqlikni yaratdi deyilgan bo'lsa, Darmesteter tarjimasida Seven River (Xapta xindava) shaklida 18-qismda keltirilib, Axriman kelib bu yerda ayollar qoni va kuchli issiqni yaratdi deyiladi. Steblin-Kamenskiy tarjimasida esa Indiya shaklida 18-qismda keltirilib, Axriman bu yerda o'ldiradigan issiqni yaratdi shaklida bayon etilgan.

O'n oltinchi davlat Asqar Mahkam tarjimasida Rangxa 20-qismda keltirilib, zimistonni olamga g'olib qildi deb esga olingan, Darmesteter tarjimasida ham Rangxa shaklida 19-qismda keltirilib, Axrimanning bu yerda qishni yaratganligi, Steblin-Kamenskiy tarjimasida esa Ranxa shaklida 19-qismda keltirilib, Axriman bu yerda ham qishni yaratganligi esga olingan.

Bundan tashqari Asqar Mahkam tarjimasida 21-qismda Axuramazdaning boshqa o'lkalar yaratgani ham aytiladi. Xuddi shu holat Darmesteter va Steblin-Kamenskiy tarjimasida ham berilib, 20-qismda keltirilgan.

Yuqorida biz uchta Avesto tarjimasini bilan shug'ullangan avestoshunoslarning tarjimasidagi farq va o'xshashliklarni ko'rib chiqdik. Ammo uchala tarjima ham bir manba ustida ketayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu yo'nalishda hali talaygina masalalarni hal etishimiz kerakligi ayon bo'ladi.

REFERENCES

1. Gershavitch.I "The Avestan hymn to Mithra" Kambridge, 1959
2. Nyberg.X.S "Die Religionen des alteren Iran. Leipzig 1938
3. Monchi-Zadex. D. "Topografisch-xistorische Studien zum iranischen National epos" Viesbaden, 1975
4. Xumbach.X "Die avestische Lander liste" 1960
5. Gnoli. G "Ariane: Postilla ad Airyosayana" RSO 1966
6. Darmsteter Y. The Zend - Avesta, I.Oxford, 1880
7. Steblin - KamenskimI. M.. «Авеста в русских переводах/ (1861 - 1996)». SPb., 1998.
8. Avesto. A. Mahkam tarjimasini. T., "Sharq" 2001.